



## ASQAD MUXTORNING TARJIMA FAOLIYATIDAGI MAHORATI

**Shermamatova Navbahor Orifjon qizi**

*Ajiniyaz nomidagi NDPI Ellikqal'a pedagogika fakulteti O'zbek tili va adabiyoti bakalavr ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Asqad Muxtorning hayoti va ijodi hamda tarjimonlik faoliyati, Sofoklning "Shoh Edip" asari tarjimasini haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Asqad Muxtor, tarjimon, tragediya, badiiylilik, asliyat, tarjima, psixologiya, Sofokl, mifologiya, ramz, adabiyot.

O'zbekiston xalq yozuvchisi, nosir, dramaturg, shoir, tarjimon Asqad Muxtor 1920-yilning 23-dekabr sanasida Farg'ona viloyatida tavallud topgan. Dastlabki dostoni "Bizning avlodlar" nomi bilan Buxoro mehnatkashlarining o'tmish hayoti haqida hikoya qiladi. Adib ijodida o'zbek xalqining ma'naviy kamolotini ko'rsatish masalasi muhim o'rin egallagan. Yozuvchining "Daryolar tutashgan joyda", "Qoraqalpoq qissasi", "Buxoroning jin ko'chakari" kabi qissalarida, "Opa-singillar", "Tug'ilish", "Davr mening taqdirimda", "Chinor", "Amu" kabi romanlarida zamonamizning muhim muammolari o'z ifodasini topgan.

Asqad Muxtor tarjimonlik sohasida ham kata yutuqlarga erishgani hech kimga sir emas. Adib ijodida Sofokl, A.Pushkin, M.Lermontov, R.Tagor, M. Gorkiy, T.Shevchenko, A. Blok, V. Mayakovskiy, A. Korneychuk kabi ijodkorlarning asarlari asosiy o'rinini egallaydi.

Asqad Muxtor 1958-yilda Maskva shahrida "Xudojestvennaya literature" nashriyotida chop etilgan "Shoh Edip" tragediyasini ruschadan o'zbekchaga o'g'irgan. Bu asar o'zbek tilidagi ilk tarjimadir. "Shoh Edip" tragediyasi 1979-yilda G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan. Ushbu asar taqdiri qudratli hudolar tomonidan boshqarilgan odamning baxtsizliklari haqidagi asardir. Tragediyani nafaqat o'zbek, balki dunyo adabiyotshunoslari va faylasuflari tahlil qilgan. Yunon yozuvchilari o'z ijodiy asarlarida miflarga murojaat qilganlar. Sofokl esa, unga kuchli psixologik mahorat bilan badiiy ishlov beradi. Asar real muhitga shunchalik yaqin tarzda yozilganki, voqealar rivojida har bir qahramon qiyofasida, ularning ong osti kechinmalarida hayotiy haqiqatni ko'rishimiz mumkin bo'ladi. U qismat fojesidan chinakam insoniy dramaga aylanadi. Misol tariqasida, Edip asarda juda uddaburon, dono fidoiy obraz sifatida namoyon bo'ladi. Uning timsolida ham o'sha davr koloriti namoyon bo'ladi ya'ni har bir ishda ma'budlarga yuzlanib, ulardan to'g'ri yo'l va maslahat so'raydi. Hudolardan qo'rqish va ularga itoat etish barcha miflarda namoyon bo'ladigan hodisa edi. Edip judaadolatli edi, u xalq boshiga



birdan tushgan ofatlarga sabab bo'lgan podshoh Layning qotili Fivada ekanligi va u jazolanmaguncha bu kulfatlar tugamasligini bilgach shunday farmon beradi:

“Man etilsin unga toat-ibodat  
Biron ostonaga qo‘ymasin qadam;  
Chunki shahrimizga kelgan qirg‘inning,  
Butun ofatlarning boisi o‘sha!..  
Bordi-yu mening xonadonimda  
Biror panoh topsa, men bo‘sam sabab,  
Qasamyod etayki birinchi galda,  
Meni qatl etsangiz, roziman rozi” [1;76]

Bu farmonga ko‘ra inson foniy dunyoda qaysi pog‘onada – xoh shoh bo‘lsin xoh oddiy fuqaro, hech kim o‘z qilmishiga yarasha jazo olmay qolmasligi ta’kidlanadi. Edip juda mulohazakor, ehtiyotkor, sabrli shaxs hamdir. Biroq uning fojeasi deya o‘z onasini nikohiga olishini keltirish mumkin. Edipning adolatini, haqligini, kuchini qay darajada mahorat bilan ta’riflagan bo‘lsa, fojeasini ham huddi shu yo‘sinda yozgan. Asqad Muxtor esa, bor voqealikni shunchaki tarjima qilibgina qolmasdan har bir tuyg‘uni his qilgan holda, adabiyot qoidalariga rioya qilgan holda tarjima qilgan.

Jahon adabiyotining yuksak cho‘qqilaridan biri – antik yunon dramaturgiyasining nodir namoyandasi Sofokl tomonidan yaratilgan ”Shoh Edip” tragediyasi bugungi kungacha o‘z estetik va falsafiy ahamiyatini yo‘qotmagan asarlardandir. Ushbu asarni o‘zbek kitobxoniga yaqinlashtirishda Asqad Muxtorning tarjima san‘atidagi o‘rni beqiyosdir. U faqatgina matnni so‘zma-so‘z tarjima qilmay, balki asarning ruhini, falsafasini va dramatik kuchini milliy ifoda vositalari orqali mahorat bilan uzatgan. Adib san‘atning eng nozik tamoyillariga amal qilgan holda jahon durdonasini o‘zbek adabiy madaniyatiga singdirgan. Asqad Muxtorning tarjimasida tilning boyligi, iboralarning milliy ruhda yangrashiga alohida e‘tibor berilgan. Yunon mifologiyasiga xos timsollar va obrazlar o‘zbek o‘quvchisiga begona tuyulmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan yondashgan. Bu esa nafaqat tarjimonlik, balki madaniyatlararo muloqotni amalga oshirishda ham katta yutuqdir. Asar haqida Gegel insoniyatning matriarxatdan patriarxatga o‘tish jarayonining o‘ziga xos ramzi deb baholadi. XIX asr mifshunosi Baxofen ham shu fikrni davom ettirib, “ Edipning fojeasi uning onasi –matriarxatga bo‘lgan muhabbatidadir” degan. XX asrning yirik faylasufi ruxshunosi Freyd esa, Sofokl asarlaridan o‘z falsafiy qarashlari konsepsiyasini topdi.



Xulosa qilib aytganda, Asqad Muxtor jahon adabiyotining eng asosiy va dunyo e'tirof etgan asarlarini ham shoirlik mahorati, ham dramaturglik mahorati bilan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Obrazlar, fonetik intonatsiyalar va dramatik tuyg'ular tarjimalarning asl ruhiyatiga mos yetkazilgan. Ayniqsa "Shoh Edip" tragediyasida dramaning til uslubi, she'riylik unsurlari, milliy madaniyatga singdirilgan holda tarjima qilingan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Shoh Edip" (ruscha) Rossiya davlat kutubxonasi. Qaraldi2020-yil 4-dekabr.
2. Sofokl. Shoh Edip.-T: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1979.-76 b.
3. [https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/dunyo\\_adabiyoti-turkumi-Sofokl.html](https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/dunyo_adabiyoti-turkumi-Sofokl.html).
4. G'oyibov M. Jahon dramaturgiyasi asoslari. – Toshkent: TDPU, 1998.
5. Karimov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2006.

